

RAHBARLIK SIFATLARINING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI

Toshboyeva Hulkar Mirzaboy qizi

Jizzax davlat pedagogika instituti

Maktab menejmenti 2 kurs talabasi

Ablyakimova Refide Izmerovna

Jizzax davlat pedagogika instituti

Maktab menejmenti kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil qilishda rahbar nimalarga e'tibor berish kerakligi hamda rahbarlik uslublari va ularning vakolatlari haqida ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, rahbar, vakolat, nizo, ish uslubi, subektivlik, obektivlik.

Boshqaruv va rahbarlik haqida so'z yuritar ekanmiz, rahbar qanday bo'lishi kerak xodimlar bilan qanday aloqalarni yo'lga qo'yishi xodimlar o'rtasida nizo kelib chiqmasligida rahbarning o'rni qay darajada ekanligi va ish sifatini oshirish uchun nimalarga ahamiyat berib ish faoliyatini davom ettirishi kerakligi doirasida so'z yuritamiz. Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish jarayoni rahbar va uning mas'uliyati masalasiga yangicha yondashishni talab etmoqda. Albatta, rahbarlik ish faoliyati haqida so'z boshlangan ekan biz buni yana bir qadam oldinga surmoqchimiz yani ishga olinish masalasidan boshlamoqchimiz. Rahbar kadr nomidan aytish keraki, albatta eng qiyin masala tanlovning mavjud bo'lishi chunki bitta o'ringa nomzod ko'rilayotgan vaqtda faqatgina bitta nomzod bo'ladigan bo'lsa, demak tanlash imkoniyati bo'lmaydi. Avvalo, ishga olinadigan lavozimga bir qancha vakantlar bo'lishi kerak shundagina biz ular ichidan eng optimalini tanlagan xolda sifatli kadr va rahbarni tanlay olishimiz mumkin albatta bu birinchisi, ikkinchisi esa albatta ishga olinadigan xodimning layoqati, lavozimga loyqlik layoqati va shuningdek insoniy sifatlari juda ham katta rol o'ynaydi. Bu o'rinda juda ko'p masalalarni keltirib o'tishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda xodimda o'rganuvchilik layoqati aynan shu xislatlar kadrda mujassamlashgan bo'lsa har qanday oldinga qo'yilgan talablarga erishishimiz mumkin.

Rahbar degan tushuncha vakolat degan tushuncha bilan yonma-yon yuradi. Rahbarlik bu albatta- vakolat. Har bir rahbarlik doirasida aynan o'zlariga vakolatlar beriladi. Vakolat-bu keskin bir qurolga o'xshaydi. Agar qurol to'g'ri ishlatilsa bu foyda beradi. Agar uni o'rinsiz ishlatilsa bu albatta rahbar uchun ham xodimlar uchun ham

zarar keltirishi mumkin. Shuning uchun birinchi navbatda rahbar o'zining vakolatini to'g'ri xis qilishi to'g'ri idora eta olishi lozim bo'ladi, mana shu ma'noda rahbar yangi lavozimga tayinlangan vaqtida o'rganib ko'rishi kerak. Qanday majburiyatlari bor qanday vakolatlari bor va jamoa shu vakolatlarni qay darajada bajarishga tayorligini va albatta hozirgi davrda har bir soxada juda ham yuqori talablar belgilangan, jamoa bu talablarga bir bosqichda chiqolmasligi mumkin ana usha vaziyatda rahbar shunday vazifalarni belgilashi kerakki to'g'ri qarorni qabul qilishi lozim ana ushandagina jamoa va rahbar ko'zlagan marraga erishishi mumkin.

Rahbarlik albatta rahbarlik faoliyatida jamoa bilan ish yuritadi. Rahbar xodimlar o'rtasida nizo kelib chiqmasligi ta'minlay olishi kerak. Albatta insonlar doirasida so'z yuritganimizda insonlarda obyektivlik va subyektivlik inson bilan bog'liq jarayonda hamma vaqt albatta subyektivlik bo'ladi. Subyektivlik-bu har ikkala tomonda ham o'z fikrlarini haq deb biladi va har tomonda xususiy fikrlari bo'ladi. Albatta rahbarning birinchi omili doim xodimlarga nisbatan adolat bilan yondashish lozim bo'ladi, sababi adolat bilan yondashmaslik xodimlar o'rtasida tarafkashlikni mahalliychilikni va boshqa-boshqa bir qancha salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Rahbar adolatli qaror qabul qilsa albatta bu jamoada birdamlilik ijobiy muhit paydo bo'ladi. Shu o'rinda rahbarlik faoliyatiga doir uning o'z uslublarini mavjudligi hisoblanadi. Albatga rahbariyatda ish uslublari juda ko'p bu o'rinda aytish kerakki rahbar aynan qaysidir bitta uslubdan foydalanishini to'g'ri deb qaray olmaymiz. Har bir rahbar o'z ish faoliyatida usullar majmuasini qo'llaydi. Aynan bir usulni ustuvor deb hisoblaydigan bo'lsak rahbar shaxsiy namuna uslubidan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi bu usul juda ham yaxshi usul albatta, lekin bu usul juda katta mashaqqat, masuliyat, salohiyatni talab qiladi bu uslub og'ir uslub hisoblanadi, aynan pedagogika sohasida bu usul juda katta samara beradigan usuldir. Aynan rahbarlar uchun bu juda katta vazifa va talab hisoblanadi. Rahbarlik ma'suliyati xodimlarning ma'suliyati albatta rahbar tomonidan beriladigan vazifalarni xodimlar tomonidan ma'suliyat bilan yondashishi muhim omil turi hisoblanadi, negaki ma'suliyat tushunchasi bu avvalo insonni o'ziga bo'lgan talabchanlikni ifodalaydi. Afsuski hozirda xodimlar ichida muassasaga nisbatan jamiyatga nisbatan talab qo'yish sifati mavjud, lekin aynan o'zlariga nisbatan talab qo'yish darajasi yetarli darajada emas. Agarda har bir xodimlarda ma'suliyat yetarli bo'lsa u jamoada va jamiyatda o'zini to'g'ri o'rnini topadi. Rahbar idora qilishning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iyl nazar boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun muayyan qobiliyatlarga ega bo'lishi lozim. Rahbar o'z fazilatlari, mustahkam xarakteri, kuchli irodasi, barqaror hissiyoti, barcha narsalar va jabhalarga nisbatan maxsus qobiliyati bilan jamoada o'z o'rniga ega bo'ladi. Bugungi kundagi fan va texnika taraqqiyoti, insonlarda onglilik darajasining yuksakligi, ijtimoiy tajribalarning ta'sirchan kuchi, kishilarning muayyan bilimlarga ega ekanligi rahbarning komil inson darajasiga ko'tarilishni taqozo etadi. Rahbar har qanday ijtimoiy guruhda

taraqqiyotga intilishning siyosiy jihatdan strategik takdik yo‘nalishlarini huquqiy jihatdan faoliyat imkoniyatlari va chegaralarni iqtisodiy jihatdan shart-sharoitlari moddiy asoslari va mahsulotlarini ma‘naviy jihatdan esa tarbiyaviy, ma‘rifiy va madaniy darajasini shakllantirishda yetakchi o‘rin tutadi. Bu esa rahbardan yuksak aql zakovat, keng dunyoqarash rahbarshunoslik fani doirasida erishilgan barcha yutuqlardan zamonaviy ma‘lumotlardan xabardor etishni talab etadi. Shu ma‘noda rahbar rahbarshunoslikning alohida fan sifatida o‘rganilishi tashkilot jamiyatning taraqqiyot sari tez va ilg‘or g‘oyalar asosida ilgarilashga katta ta‘sir ko‘rsatdi hamda yuqorida zikr etilgan muammolarni anglash va o‘z vaqtida hal etishga demak rahbar faoliyatining izchilligi, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rahbar madaniyati ham boshqaruvda eng muhim xususiyatlardan iboratdir. Madaniyat avvalo ma‘naviy boylik xosilasi. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat davlat xalq manfaati nazaridan ish tutadi, umummanfaatni o‘z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo‘yadi. Rahbar va rahbarlikka davogar shaxs alohida xulq atvorga, ma‘naviyat va madaniyatga ega bo‘lish uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo‘lish yoki iqtisodiy va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan ilg‘or boshqaruv malakalarini ham o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak. Bugungi rahbar bunga zimmasidagi vazifalarga yuksak ma‘suliyat bilan yondashish o‘ziga nisbatan talabchanlik orqali erishadi. Siyosat, iqtisod va ma‘naviyatga dahldor kitoblar va mumtoz adabiyot tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish ham uning dunyoqarashini kengaytiradi. Agar aql zakovati tafakkuri ma‘naviy kamoloti, madaniyati bilan rahbar mustaqil fikirlashdan mushohada qilishdan kundalik voqea hodisalarni teran tahlil etib borishdan uzoqlashsa rahbarlik talab etgan ma‘naviyatdan uzoqlashib boradi¹. Hozirgi zamonda buyruq berish, tahdid qilish va boshqa salbiy xatti-harakatlar bilan jamoani boshqarib bo‘lmaydi. Respublikamizda yuz berayotgan demokratik yangilanishlar, so‘z va vijdon erkinligi, milliy o‘zlikni anglash, huquqiy himoyalanganlik fuqarolar ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar natijasida respublikamiz aholisi uchun mustaqil fikrlash va ish yuritish, shaxsiy rejalarni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini izlash imkoniyatlari vujudga keldi. Shuning uchun xam xalqimiz davlatimizni “O‘zbekiston – keng imkoniyatlar mamlakati” deb e‘tirof etadi. Zamonaviy rahbar ijtimoiy hayotdagi munosabatlar, ularning tuzilishi va mohiyati bilan yaqindan tanish bo‘lishi, boshqaruv jarayonida ularni hisobga olishi taqozo etiladi. Rahbar o‘z boshqaruvi ostidagi kishilar, ijrochi-yordamchilar orasida o‘zining har tomonlama ustuvorligi bilan obro‘-e‘tibor orttirishi lozim, aks holda ishlab chiqarish samaradorligi, xodimlarning ijodiy fikrlashi to‘g‘risida so‘z bo‘lishi ham

¹ Itsxak Kalderon Adizey “Mukammal rahbar” Zukko kitobxon 2022. 31.

mumkin emas. Rahbarning shaxs sifatida yuksak ma'naviyat egasi ekanligi, qat'iy xarakteri, milliy kiyofasidan tashqari yana qator quyidagi sifatlar lavozimning keyingi bosqichlari uchun imkon yaratib, istiqbol rejalarini ro'yobga chiqaradi

Huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri ham qonun ustuvorligi, fuqarolar huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining mustahkam kafolatlari yaratilganligidir. Bunda, ayniqsa, respublika aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etgan ayollarning huquq va manfaatlari masalasi alohida o'rin tutadi.²

Albatta pedagogika instituti muassasalari tarbiyalovchilarni tarbiyalaydi. Shu ma'noda shunday mulohaza bo'ladiki nima uchun kitobda yozilgani boshqacha-yu hayotdagi boshqacha, o'qituvchimiz aytgani boshqa hayotdagisi boshqa, yozilgan tartib boshqacha-yu ko'chadagi tartib boshqa degan mulohazalar bo'ladiki va bu mulohazalarga tog'ri javob topmaslik insonlarni ba'zida boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadi. Aynan ana shu vaziyat va xolatlarda rahbar jamoasini qo'l ostidagi xodimlarini to'g'ri yo'lga boshlay olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim tizimini boshqarish. -T.: "Turon iqbol": 2006. – 592 b.
2. Itsxak Kalderon Adizey "Mukammal rahbar" Zukko kitobxon 2022. 31.
3. Toshboyeva, H. (2021). ZAMONAVIY MENE JER VA YETAKCHI. Мир исследований, 1(1). Извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/journal/article/view/937>
4. Nazarov, T. (2021). TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4423>
5. Botirov, BF, Usmonov, J., & Ablyakimova, RI (2021). O'zbekistonda turizm xizmatlarini milliy uslublar va zamonaviy innovatsiyalar uyg'unligi asosida tashkil etish. XALQARO ILMIIY-JORIY TADQIQOT KONFERENTSIYALARI, 53–57.
6. Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. Архив Научных Публикаций JSPI, 11(1). Извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052.
7. Аблякимова, Р., & Аlimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>
8. Аблякимова, Р., & Usmonov, A. (2021). Умумтаълим мактабни самарали бошқаришда янгича ёндошув. Журнал Педагогики и психологии в современном

² Jo'raeva N. "Boshqaruvda rahbar ayol ma'naviyatining o'rni"// "Jamiyat va boshqaruv" jurnali T.: 2011-y.

- образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1537>
9. Аблякимова, Р. (2021). НОДАВЛАТ МАКТАБЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1536>.
10. Аблякимова, Р. (2021). ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1527>.
11. Аблякимова, Р. (2021). O'ZBEKISTONDA IT SOHASINING LOKOMOTIVI. Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari, 1(3). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4085>
12. Ablyakimova, R. I. (2022). THE ROLE OF WOMEN IN GOVERNMENT AND SOCIETY IN UZBEKISTAN. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(2), 1-9.
13. Alimova, Q. (2021). FARZAND TARBIYALASHDA OTA-ONALARNING ASOSIY XATOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/594>
14. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Джизакское инновационное образование, 1(1). извлечено от <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
15. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>
16. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. Jizzax innovatsion ta'limi , 1 (1). <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
17. Аблякимова, Р., & Alimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>
18. Alimova, K. O. K., Toshboyeva, K. M. K., & Ungarov, B. T. U. (2021). TODAY'S STUDENT IS TOMORROW'S LEADER. Scientific progress, 2(2), 308-310. <https://cyberleninka.ru/article/n/todays-student-is-tomorrows-leader>
19. Alimova, Q. (2021). TALABALAR TURAR JOY MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(3). извлечено от <https://phys.tech.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3636>

20. Alimova, Q. (2021). PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF THE RICHBAR PERSON IN THE MANAGEMENT. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(3). извлечено от <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3651>
21. Isankulova, M., & Alimova, Q. (2021). YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRILISH MASALALARI. Научно-просветительский журнал "Наставник", (1). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/science/article/view/1180>
22. Botirov, S. (2022). Рақамли иктисодиётни шакллантириш жараёнида илмий инновацион фаолиятни шакллантириш. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4793>
22. Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
23. Siddiqova, S. (2022). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛОВЧИ, ИЖОДҚОР ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).
24. Siddiqova, S. K. (2021). INCREASE THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS COGNITION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 24-26.
25. Siddiqova, S. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).
26. Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
27. Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>
28. Санакулова, З. А., & Соибназарова, М. Н. (2017). Модульное обучение как педагогическая технология. In Педагогическое мастерство (pp. 20-22).
29. Санакулова, З. А., Соибназарова, М. Н., Бойтураева, Н. И., & Юлдашев, Ш. Э. (2016). Психологические условия формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся. *Молодой ученый*, (8), 1022-1024.
30. Axmedova, S. (2022). МАКТАБЛАРДА О‘ҚИТИШ ТИЗИМИНИНГ ТА’ЛИМ ОЛУВЧИЛАР YOSHI BILAN BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогика и

психологии в современном образовании, 2(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5879>

31. Axmedova, S. (2022). SAMARALI RAHBARLIKKA XOS XISLATLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5102>

32. Axmedova, S. (2022). TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING MA'NAVIY QIYOFASI, MADANIYATI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4904>

33. Axmedova, S. (2022). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5881>